

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Z.M.BOBUR NOMLI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSIRETI
MUSIQA VA UNI OQITISH METODIKASI KAFEDRASI
ISAQOV BOBORAHIM TOLIBJONOVICH
“MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA FAOLIYATLAR
USTIDA ISHLASH”

5141000-musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish
uchun yozgan

Bitiruv malakaviy ish

Ilmiy rahbar:

A.Isroilov

Andijon-2013

“MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA FAOLIYATLAR USTIDA ISHLASH”

REJA

KIRISH

I BOB. SHAXSNING TARBIYALASH VA KAMOLGA YETISHISHIDA YOSHGA DOIR TAVSIFLAR

I.1. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini fan sifatida o'qitilishi

I.2. Musiqa madaniyati darslarining xususiyati va strukturasi

II BOB. MUSIQA FAOLIYATLARI ASOSIDA NOAN'ANAVIY DARS TASHKIL ETISH

II.1. Musiqa va milliy ma'naviyat mazmuni

II.2. Yosh avlodni donishmadlarimizning musiqa ilmiga oid qarashlari va maqomlarimiz orqali tarbiyalash

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Musiqqa madaniyati darslarida milliy musiqqa me'rosalaridan to'laqonli foydalanish va bugungi zamonaviy asarlarni musiqqa darslarida qo'llash, o'qituvchidan ish mazmunini va uslubini yangilashni talab etadi.

Buning uchun musiqqa o'qituvchisi o'z fanini puxta bilishi, bolalarni sevishi, pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqqa o'qitish metodikasi va innovatsion pedagogik texnologiyalardan chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Chunki, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqqa o'qituvchisi yetakchi mutaxassis bo'lib hisoblanadi.

Maktab hayotida musiqqa madaniyati o'qituvchisini faoliyati va dunyoqarashi keng ma'noda tahlil etiladi. Musiqqa madaniyati darslaridan tashqari, o'quvchilar bilan tarbiyaviy, musiqali ochiq darslar yoyingki, maktabda o'tkaziladigan barcha tadbirlarda yetakchi mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi. Bu hozirda ishlayotgan o'qituvchilardan ish mazmuni va uslubida yangilanish jarayonini talab etadi. Bunday talablar yangi nashrdan chiqqan qo'llanmalar, tavsiyanomalar, dasturlar, darsliklar, keng ma'noda mazmunli qilib yoritilgan.

Musiqqa o'qituvchisi dars jarayonida qo'shiq kuylash, musiqqa tinglash, musiqqa mos harakatlar bajarish, bolalar cholg'u asboblarida musiqqa ohangiga va ritmiga jo'r bo'lish, musiqiy ritmga mos harakatlar bajarish kabi dars faoliyatlarida musiqqa qiziqтира olish va ularni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirib dars samarasini ko'tarishga harakat qilmog'i lozim.

Chunki, musiqqa tarbiyasi o'quvchilarga tez ta'sir eta oladigan ta'lim tarbiya vastasidir. U o'quvchilarni shaxs bo'lib shakllanishi uchun ommaviy va ahloqiy tomondan ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham, musiqqa madaniyati darslari avvalo tarbiya darsi deb ataladi. Dars samaradorligini oshirish musiqqa o'qituvchisidan mehnat, o'z faniga muhabbat, bolalarni o'zallik va nafosat olamiga olib kirish uchun bilim, mehr va shijoat talab etadi.

I BOB. SHAXSNING TARBIYALASH VA KAMOLGA YETISHISHIDA YOSHGA DOIR TAVSIFLAR

Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish - bu insonning jismonan, aqlan ma'naviy tomondan kamolga yetish jarayonidir. Bu jarayonning o'ziga xos obektiv va sub'ektiv tomonlari mavjud.

Musiqqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydigan san'at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: «Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atda emasmikan, zeroki, ritm va garmoniya hammadan ko'proq shu vaqtda qalbgacha chuqur yo'l topadi va salobat baxsh etib, uni ko'rkam qiladiki, agar tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, aks xolda uning teskarisi bo'lib chiqadi.

Uning shogirdi Aristotel (Aflotun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi. «Musiqqa kishi ruxining ahloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga, ta'sir etadi.»

Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr Al-Farobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga aniq ta'sirini quyidagicha bayon etadi: «Bu fan (ya'ni musiqqa) shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir.»

Musiqqa inson ruxi va aqliy rivojiga bebaho ta'sir o'tkazadi. Ch.Darvin umrining oxirlarida quvvati, (xotirasi) va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib yozadi: «Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish nasib bo'lganda edi, endigi hayotimda loaqal xaftada bir marta bo'lsa ham, bir necha she'r o'qishni o'zimga qoida qilib olardim.» shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqqa madaniyatini tarbiyalash, musiqqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo'shilishiga ahloqiy soflik, san'atga va hayotga estetik munosabat - shaxsning to'laqonli kamolga yetishida muhim shartidir. Bu oliyjanob maqsadga erishishda to'g'ri yo'lga qo'yilgan bolalar musiqa tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Bolalar qobiliyati aktiv musiqa faoliyati davomida rivojlanib boradi. Qobiliyatlar deganda insonning kerakli ko'nikma, malaka, ilmlarni olishi va uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olishga qaratilgan psixologik xususiyatlari tushuniladi.

Ma'lum bir faoliyat turiga bo'lgan qobiliyat. Nerv sistemasining (tizim)analizatorlari sezgirligi, kuchi,nerv jarayonlarining harakatlanganligi, muvozanatlashganligi kabi omillar asosida rivojlanadi.

Masalan: bir sinfda o'qiyotgan ikkita o'quvchiga o'qituvchi bir xil asar she'rni etyudini beradi. Lekin o'quvchilardan biri etyudni bir xaftadan keyinroq, yana biri darhol chaqqon, tez o'lashtira boshlaydi. Boshqa o'quvchi esa bu ishni bir oy o'tganda ham bajara olmaydi va ko'p xatolar qiladi. Muvaffaqiyatga erishishdagi bu farqni xoxlagan bir pedagog ana shunday holatlarda o'quvchilardagi qobiliyatlar darajasiga bog'laydi.

Tug'ma qobiliyatlarning irsiy berilishi, masalan: tibbiyot ilmida va unga muvofiq pedagogikada ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ichkilikbozlikka berilgan ayrim oilalardagi bolalarda ba'zi bir irsiy ko'chib o'tadigan ruxiy kasalliklarga chalinish xollari uchraydi. Sog'lom kishilar farzandlarida aqliy faoliyat darajasi va sifati yuqori bo'lishi kuzatiladi. Jismoniy va ruxiy sog'lom bo'lgan kishilarda ma'lumotlilik hamda bilish jarayonlarining rivojlanishi ko'p jihatdan ular qanday sharoitda o'qitilayotganligi yoki qanday sharoitga qo'yilganligi bilan belgilanadi.

Bizning talim-tarbiya tizimimiz hamma o'quvchilar uchun bir xil imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga har bir kishida mavjud bo'lgan iqtidor, qobiliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratiladi, o'quvchilarga ularning individual o'ziga xosliklarini hisobga olgan xolda tabaqalashtirilgan xolda

yondashuvni inkor etmaydi. Qobiliyatlar namoyon bo'lishi uchun esa uning egasi ko'p mehnat qilishiga to'g'ri keladi .

Xalqimizda «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol bor. Har bir bola birinchi tarbiyani o'z ota-onasidan, oila a'zolaridan, o'z atrofidagi yaqin kishilardan oladi.

Oiladagi ijobiy muhit, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, bir-biriga bo'lgan hurmat va e'tibor, mehribonlik kabi fazilatlar, musiqa tarbiyasi bilan birga bolalarda dastlabki tushuncha va ko'nikmalarining rivojlanib borishida asosiy o'rin tutadi.

Bolalar shaxsi uning faoliyati jarayonida tarkib topdi. Zotan, o'quvchining faoliyati juda maroqli, o'ziga xos go'zal va shakl jihatidan rang-barangdir. Bu fazilatlar bolalarga xos bo'lgan doimiy ehtiyojga aylangandagina ulardagi faollik yanada ortadi. Maroqli va ma'naviy zavq beruvchi ana shu go'zal tuyg'uli bolalarning nafosat tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, bolada namoyon bo'ladigan ilmiy badiiy-estetik tarbiya muhim ma'naviy go'zallikka puxta, zamin hozirlaydi.

Bolalar yoshlik xususiyatlarini e'tiborga olib uni ilk yoshidan tashkil qilish va yo'naltirish - pedagogning vazifasidir. Aks xolda bolaning rivojlanishida orqada qolish seziladi. Misol uchun bolalarni ilk yoshida musiqaviy tovushlarning balandligi bo'yicha ajratib borishga o'rgatilmasa u yetti yoshida bu vazifalarni uddalay olmaydi.

Musiqaviy rivojlanishning muhim xususiyatlari quyidagilardir:

- eshitish sezgisi, musiqaviy eshitish qobiliyati;
- har xil xarakterdagi musiqalarga emotsional munosabatning sifati va darajasi;
- Qo'shiq kuylashda, musiqaviy ritmik harakatlar bajarishda oddiy ko'nikmalar hosil qilish.

Bolalar hayotining 1-yili

Ruxshunoslar (psixologlar) bolalarda eshitish-sezish erta uyg'onishini ta'kidlaydilar. A.A.Lyublinsqaya ma'lumotlariga ko'ra bola hayotining 10-12 kunida tovushlarga munosabat seziladi.

2 oylik bola ovozga, skripka tovushlariga quloq solib tinchib qoladi.

4-5 oylik bolalar ovoz kelayotgan manbani izlaydilar. Qo'shiq kuylayotgan ovozga quloq tutadilar. To'g'ri rivojlanayotgan bola birinchi oylardan boshlab musiqa xarakteriga kompleks jonlanish munosabatida bo'ladilar, ya'ni ular quvonadilar yoki tinchib qoladilar. Bola hayotining birinchi yili oxiriga borib kattalar qo'shig'iga g'uvillash bilan jo'r bo'lishga harakat qiladilar.

Bola hayotining 2-yili

Bolalar musiqa tinglashda yorqin emotsional munosabat quvnoq jonlanish yoki muloyim kayfiyat bildiradilar. Bola baland va past tovushlarni, qattiq va sekin yangrash, xatto tembr ishlarini ham ajratadi. (Metallofon yoki barabanda ijro qilinayotgan) Birinchi marta ongli ravishda qo'shiqchilik intonatsiyalari hosil bo'ladi. U kattalar qo'shig'iga jo'r bo'lib qo'shiqning oxirgi jumllarini takrorlaydi, u oddiy harakatlar chapak, oyoq taqillatishi, musiqa ostida aylanishlarini bajarishi mumkin.

Bola hayotining 3va 4 yili

Bolalarda sezgirlik, jismlarning har xil xususiyatlarini ajratish, shu jumladan musiqaviy kabi xususiyatlar ham rivojlanadi. Shuningdek, musiqaviy sezgirlikning individual rivojlanishi kuzatiladi. Misol uchun bolalar oddiy qo'shiqlarni aniq kuylashlari mumkin. Bu davrda yana bolalarning mustaqil harakat qilishga intilishi bilan xarakterlanadi. Bolalarda aktiv harakat qilishga intilish, musiqa bilan shug'ullanishga qiziqishi ortadi. 4 yoshli bolalar kattalarning ozroq yordami bilan kichik ashulalarni mustaqil kuylashlari mumkin, ular har xil harakatlarni biladilar va uni ma'lum darajada mustaqil ishlata oladilar.

Bola hayotining 5 yili

Bu davr ularning aktiv qiziqqonligi bilan xarakterlanadi. Bu davr nimaga? Nima uchun? - degan savollar davridir.

Ular kuzatuvchan bo'lib musiqaning quvnoq, shodiyona, tinch xarakterini, tovushlar baland-pastligini, p'esalarning birinchi qismi tez ikkinchi qismi sekin ekanligini, kuy qaysi asbobda ijro qilinayotganligini (royal, skripka, bayan) aniqlay oladi.

Bola oldiga qo'yilayotgan talablarni to'g'ri tushunish. Tovush bu davrda jarangdor, harakatchan xususiyatga ega bo'ladi. Ovoz intonatsiyasi ancha turg'unlashadi, lekin doimo kattalar yordamiga muxtoj bo'ladi. Harakatning asosiy turlari - yurish, chopish, sakrashlarni egallash bolalarga bu harakat turlarini o'yin, raqslarda qo'llash imkonini beradi.

Bola hayotining 6-7 yillari

Bu davr bolalarni maktabga tayyorlash davridir. Bog'chada olingan musiqaviy taasurotlar, bilimlar ta'sirida bolalar musiqa asarlariga xarakteristika berish uning ifoda vositalarini tahlil qilishlari musiqada ifodalangan har xil kayfiyatlarni sezishlari mumkin. Bola musiqaviy obrazlarni butunligicha qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu esa tevarak-atrofga estetik munosabatni tarbiyalashga katta yordam beradi. 6-7 yoshli bolalarda ovoz apparati yanada rivojlanadi. Ovozda kuychanlik, jarangdorlik paydo bo'ladi. Qo'shiq, raqs va o'yinlar mustaqil ravishda ijro qilinadi. Musiqaviy qiziqish va qobiliyatlar yorqinroq namoyon bo'ladi.

Birinchi sinf

Birinchi sinfda musiqa darslarining maqsadi va vazifalari bolalarning psixologik-fiziologik xususiyatlari va musiqaviy – o'quv xususiyatlarining darajasiga asoslanib belgilanadi.

Notagacha bo'lgan davr, bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lish, musiqali ritmik harakatlar bajarish, bu sinfda amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha

maqsadlar musiqa tarbiyasining bosh mezoni o'quvchilar ma'naviy boyligining tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi.

Birinchi sinfda musiqa ta'limotining poydevori ko'riladi. Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarning ovoz diapazonini aniqlash va uni kengaytirib borishga alohida e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinflarda ko'pgina o'quvchilarning ovoz diapazoni, birinchi oktava «lya» dan yuqoriga o'tmaydi.

Zero, dasturdagi qo'shiqlarning diapazoni birinchi oktava «do» dan uchinchi oktava «do» gacha ko'tariladi. Natijada, o'quvchilar qo'shiqni bu pardalarda mutlaqo noto'g'ri ijro etadilar yoki umuman ayta olmaydilar. Shu tufayli o'quvchilarni ikki ovozga ajratish ya'ni ovozi yuqori pardalarga ko'tarilmaydigan o'quvchilar jim eshitishlari qolganlari kuylashi talab qilinadi.

Shuningdek, ovozga ajratish o'quvchilarga qo'shiq o'rgatishda qo'l keladi. Har bir ovoz guruhining alohida kuylanishi o'quvchilarni ko'p ovozlikka tayyorlab boradi va ularda mustaqillik xissini tarbiyalaydi.

Ikkinchi sinf

Ikkinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra: birinchi sinf o'quvchilariga o'xshash bo'ladi. Qo'shiq, raqs, marsh janrlarining musiqiy xususiyatlariga qarab farqlash kabi birinchi sinfda olingan tushunchalar bilimlarga aylanadi.

Vokal-xor ishga e'tibor kuchayadi, o'qituvchi ovoziga va cholg'uga tayanib o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, kuyning bir jumlasini ketma-ket ijro etishdan ikki ovozlik hosil qilib qo'shiqlar o'rgatadi.

Do1-Re2 diapazonidagi bir va ikki ovozli qo'shiqlar kuylatiladi. Musiqa xarakteri va janr ifodalarini anglash va tasvirlashda musiqali-ritmik harakatlardan va bolalar cholg'u asboblari keng foydalaniladi, Shuningdek, o'zbek xalq ashulalari va cholg'u asboblari, kompozitorlar ijodi bilan tanishtiriladi.

Uchinchi sinf

Uchinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik xarakteriga ko'ra 1-2 sinflardan ancha farq qiladi. Ikkinchi sinfda olingan bilim va malakalar musiqa

qonuniyatlariga doir yanada konkret nazariy bilimga aylanadi. Ularning diqqat-e'tiborlari turg'un, nutqi ravon bo'ladi, ovoz apparatlari shakllangan ikki ovozli asarlarni (o'quvchilar dol-re2 (mi2) diapazonidagi bir ovozli va ikki ovozli qo'shiq elementlari bo'lgan asarlarni kuylaydilar) kuylash malakasiga ega bo'ladilar. Musiqa darsiga qiziqishlari yanada ortib boradi.

To'rtinchi sinf

To'rtinchi sinfda o'quvchilar psixologik jihatdan hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat e'tibori turg'un, jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, xajmi jihatidan kattaroq bo'lgan musiqani ham eshilishga qodir bo'ladilar. Taqqoslash, izlanish jarayonida ikki ovozli qo'shiqlardan jo'rsiz-a'sapella asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Musiqa tinglash jarayonida o'zbek xalq musiqasi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati, o'zbek xalq musiqasining qardosh xalqlar musiqasi bilan yaqinligi va o'xshashligi haqida ma'lumot berish lozim. Bundan tashqari to'garaklarga jalb etish, yakkaxon dastalar (ansambl) tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchi sinf

Beshinchi sinfda tayanch ta'lim bosqichi boshlanadi. Beshinchi sinfda o'quvchilar psixologik tomondan ancha o'zgargan bo'ladi. Ularning diqqat-e'tibori turg'un, fanlarga qiziqish, izlanish, o'zining sevgan mashg'uloti mavjudligi bilan farq qiladi. Fikrlash birmuncha rivojlanganligi sababli, ko'rgazmali idrokdan ko'ra, so'z orqali mantiqiy idrok qobiliyatlari rivojlana boshlaydi.

Vokal-xor malakalari ovoz diapazonlari notekis bo'ladi. (D1-mi2 birinchi ovoz, Dol (si kich)-Do2 (re2) ikkinchi ovoz diapazonlarida bir va ikki ovozli ashulalar aytish). Shu sababli ularda sof unison ansambl ikki ovozda kuylash ishi murakkab amalga oshadi.

Oltinchi sinf

Oltinchi sinflarda o'quvchilarda o'spirinlik davri boshlanib, ular tabiat va hayot qonunlariga jiddiy qiziqadilar. Psixologik-fiziologik jihatdan organizmda aktiv o'zgarishlar ro'y beradi. Bo'yining o'sishi, ovozning o'zgara borishi,

fanlarga qiziqishi va mustaqil fikr yurita olish, qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada bosh miya yetarli darajada ozuqa ololmay horg'inlik holatlari ro'y beradi. Bu davrda o'qituvchi ularga jiddiy va mehribon munosabatda bo'lishi, do'stona suhbatlashishi talab etiladi. Quyidagi diapazondagi bir va ikki ovozli ashulalarni ayta oladilar: birinchi ovoz dol-mi2 (fa2), ikkinchi ovoz Si kich (Lya kich) D02(re2)

Yettinchi sinf

Yettinchi sinf o'quvchilarida psixologik-fiziologik jihatdan ayrim o'zgarishlar paydo bo'ladi, emotsional holatlari, darsda nisbatan horg'inlik alomatlari paydo bo'ladi. Dars davomida o'quvchilarning kayfiyatlari o'zgarib turadi. Mazkur holatda dars maqsadlariga erishishning yagona sharti sinfdagi har bir bolani yaxshi o'rganib, dars mazmunini yuksak musiqaviy darajada olib borishdan iboratdir.

Bu davrda ko'pchilik bolalarda mutatsiya davri avj oladi, shunga qaramasdan ovozlar xali jarangdor yangraydi. O'qituvchi ularning ishchi diapazonini toliqtirmasligi va qo'shiq kuylash miqdorini buzmasligi lozim.

Shaxsni musiqa yordamida tarbiyalashda asosiy vazifa, ularga o'zbek musiqasining butun rivojlanish tarixi davomida to'plangan barcha musiqa madaniyati boyliklarini yetkazish, ular onggiga singdirish lozim. Zotan, shu jarayonda milliy asoslar kichik yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlarini o'stirishda tabiiy va qulay zamin hisoblanadi

Xalq musiqa san'atimiz o'zining tuzilishi va ijrochilik uslubi bilan ikki turga bo'linadi. Ommaviy xalq kuy va qo'shiqlari birinchi turga moyil deb hisoblanadi. Bu janrlar shuning uchun ham ommaviy deb ataladiki, ular sodda va ijroda qulay bo'lganligi sababli, har bir xoxlovchi biror ustozidan maxsus ta'lim olmasa-da, ularni to'y-xasham, bayramlar va boshqa marosimlarda ijrochilarga qo'shib, o'rganib ketadi. Natijada ommaviy janrlarning ijrochilari xalq orasida ko'pchilikni tashkil etadi.

Og'zaki an'anadagi ustozona musiqasi janrlarini esa osonlikcha o'rganib ijro etish qiyin. Chunki ularning tuzilishi murakkab bo'lib, katta avjlar va murakkab ritm-usullardan iboratdir. Shu bois professional musiqani ijro etish uchun boy tajriba, yuksak ijrochilik mahoratiga, jarangdor va keng diapazonli ovozga ega bo'lish lozim. Ayniqsa, ularni ijro etish jarayonida qochirim va nola kabi ijrochilik ifodalarni qo'llash lozim bo'ladiki, u yuksak mahorat talab etadi. Shuning uchun professional musiqa janrlariga oid bo'lgan ashula, katta ashula, epik dostonlar va maqomlarni ijro etish maktabini o'rganish uchun yetuk ustoz-san'atkorlardan yillar davomida saboq olish bo'ladi.

O'tgan asrlarda musiqa amaliyotimizda nota yozuvi deyarli qo'llanmaganligi sababli xalq musiqasi ogzaki tarzda avloddan avlodga o'tib keladi.

Musiqa madaniyatimizni rivojlantirishda va uni avloddan-avlodga me'ros qoldirishda xalq musiqa san'ati ustalarining xizmatlari benihoya kattadir. Xalq musiqasini mukammal bilgan, ularni yuksak mahorat bilan ijro etgan va yangi kuy, qo'shiqlar yaratib musiqamizni yanada boyitgan har bir bastakor, mashshoq va honanda xalqimizning katta hurmatiga sazovor bo'lgan. Ularni xalq «Usta», «Xofiz», «Mehtar» kabi yuksak unvonlar bilan ardoqlagan.

Respublikamizda xalq hurmatiga sazovor bo'lgan ashulachilarga «O'zbekiston xalq hofizi» degan faxriy unvon berilishi ham shu boisdandir.

Xalqimiz orasida mashxur bo'lgan atoqli san'atkorlarimiz juda ko'p. Ota G'iyos Abdugani, Ota Jalol Nosirov, Domla Xalim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, Shoraxim Shoumarov, Leyi Bobojanov, Usta Shodi Azizov, Matpano Xudoyberganov, Madraxim Yoqubov (Sheroziy), Matyoqub Harratov Shular jumlasidandir.

Mustaqil O'zbekistonda yangi jamiyat qurish ishi keng avj olgan hozirgi davrda yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularning Vatanga bo'lgan mehr-muxabbatini oshirish, ma'naviy kamol toptirish, ularning ma'naviy-siyosiy ongini o'stirish va estetik-ahloqiy tarbiya borasida san'at, xususan musiqa san'ati

o'zining ta'sir kuchi bilan nixoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero u eng qadimiy, ayni chog'da zamonaviy va xalqning sevimli san'ati hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar:

Shaxs - odamning jamiyat a'zosi sifatida, o'z-o'zini anglash va tafakkurni, faoliyatning ob'ektivligini, muloqot hamda biluvchanlikni tashuvchanligidir.

Insonning rivojlanishi - tashqi va ichki, boshqariluvchi va boshqarilishga berilmaydigan omillar tomonidan shaxsning shakllanish jarayonidir.

Qobiliyat - shaxsning individual - psixologik o'ziga hosligining psixologik tarkibiy tuzilishiga kiritilgan, qaysidir bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga taaluqli bo'lgan va bilimlar, malakalarni egallashning tezkorligini, yengilligini izohlab beradigan xususiyatdir.

Maqsad – bo'lg'usi natijalar haqida har doim aqlan uylab ko'rilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar.

Musiqqa turli tuman tovushlar bilan obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy emotsional mazmuniga ega bo'lgan san'atning bir turi hisoblanadi.

I.1 Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini fan sifatida o'qitilishi

Har qanday fan jamiyat va tafakkur taraqqiyotining qonunlari to'g'risidagi bilimlarning jamlashmasidan iborat bo'ladi. Fanning ajralib turishi va faoliyat ko'rsatishi uchun o'zida xususiy tuzilishining mavjudligi muqarrar.

Musiqiy ta'lim-tarbiya metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kirib unda alohida o'rin tutadi. Musiqiy tarbiya masalalari hozirgi zamon pedagogikasida tarbiyaning umumiy muammolari bilan bog'liq holda qaraladi. Musiqiy estetik tarbiya deganda keng ma'noda tushuniladi. Bu jarayonda umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslari muhim o'rin tutadi. Musiqiy tarbiyaga pedagogik nazariya bilan qaralganda ta'lim-tarbiya muassasalari tizimida amalga oshiriladigan o'quv tarbiya jarayonining biror maqsadga muvofiq oldindan rejalashtirilib tashkil etiladi.

Biror maqsadga qaratilgan tarbiyaning samarasi mehnat va ijtimoiy faoliyatni ma'lum bir tizimga solib boradi. Musiqa ohangi va mazmuni go'zallikni faol idrok etish va tafakkur faoliyatini talab qiladi.

Musiqa idroki didni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish va ahloqiy tarbiya bilan o'zaro ta'sirda mujassamlanib boradi.

O'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashda, ularning badiiy didini o'stirishda adabiyot va san'atning roli nihoyatda kattadir. Chunki bolalarda ahloqiy me'yorlarni shakllantirishda musiqa san'atining imkoniyati juda keng.

Maktabda musiqiy tarbiya tizimi bir nehta elementlardan tashkil topadi, bularga: musiqa darslari, sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiyalar, oilada va kundalik radio va televediniya orqali berilayotgan tarbiyalarni o'z ichiga oladi.

Musiqa madaniyati darsi o'ziga xos faoliyat turlari bilan: musiqa asarini tinglash va tahlil qilish, qo'shiq kuylash, musiqaga mos harakatlar bajarish, musiqa savodini o'rganish bolalar musiqa asboblariida chalish,

musiqaga ritmik jo'r bo'lish, musiqiy ijodkorlik bilan ajralib turadi. Dars jarayonida bu faoliyat turlarini bir-biridan ajratish mumkin emas. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'lanib noan'anaviy dars tashkil etiladi va mashg'ulot samarasi oshadi.

Dars maktabdagi o'quv ishining shakli bo'lib, bunda oq'ituvchi aniq belgilangan vaqt davomida o'quvchilarga barcha faoliyatlarga tayangan holda pedagogik texnologiyadan foydalanib mashg'ulot sxemasini yaratishi lozim.

O'qitish jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchining munosabatlari samimiy bo'lgan holda darsdagi jarayonini doimiy tahlil etib, yutuqlar e'tirof etiladi va kamchiliklar to'ldirilib boriladi.

I.2.Musiqa madaniyati darslarining xususiyati va strukturasi

Dars o'quv tarbiya jarayonida tahsil maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ta'lim shakli hisoblanadi. O'tkazilgan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchilarni ham qanoatlantirish uchun ma'lum darajada umumiy ba'zi bir talablarga javob berishi kerak.

Dars predmet kalendar dasturidagi o'z o'rniga ega bo'lishi, maqsadi aniq belgilangan bo'lishi kerak. Dars o'tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, iqtidor va ko'nikmalar alohida aniqlanishi darkor. Shu bilan birga mazkur dars davomida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning erishiladigan darajasi ham belgilanishi ma'qul bo'ladi. Darsda ishlatiladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo'lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Darsga qo'yiladigan didaktik talablardan yana biri shuki, beriladigan o'quv materialini sistemali ravishda osondan-qiyinga, oddiydan-murakkabga, o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda amalga oshirilishi kerak. Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar:

Mavzuni (kalendar) rejalashtirish asosida dars o'tkazishning ishlab chiqilgan aniq rejasi mavjud bo'lishi, dars o'z vaqtida boshlanib, o'z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o'quvchilar ongli intizomi ta'minlanmogi lozim.

Dars tashkil etishda turli-tuman vositalardan, o'quv-texnik va ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'zda tutiladi. Darslar juda ham turli-tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo'lib, darslarni bir marta doimiy ravishda mavjud bo'ladigan ko'rinish tarzida rejalashtirish va o'zgarmaydigan qotib qolgan na'muna asosida o'tkazaverish mumkin emas.

Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o'tilgan omillar qatorida mazkur sinfdan ishlashning haqqoniy shart-sharoitlari. Shuningdek, o'qituvchi ish faoliyatining ijodiy xarakteri katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir dars boshqa darslardan xatto ular bitta fan, bitta mavzu yuzasidan teng, yonma-yon sinflarda o'tkazilganda ham o'zining o'ziga xos jihatlariga ko'ra farq qiladi. Darsda har doim

o'qituvchining maxsus «Pedagogik yondashuv tarzi» ni ko'rish mumkin. Masalan: kombinatsiyalashgan dars quyidagi ko'rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish, o'quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish. O'rganilgan material yuzasidan o'quvchilardan so'rash, o'qituvchi tomonidan yangi materialning bayon etilishi, o'rganilgan materialni mustahkamlash, uyga topshiriqlar, vazifalar berish.

Darsni yutug'i va uning natijalari nafaqat o'qituvchining tayyorligiga, balki o'quvchilarning tayyorgarliklariga ham bog'liq bo'ladi. Afsuski, ushbu masalaga ko'pgina o'qituvchilar o'zlarining amaliy ishlarida yetarli darajada e'tibor bermaydilar. O'qituvchi darslarda o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni bolalarga hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqe, obro'sini saqlagan xolda yondashoshishni namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan xolda olib borishi lozim. Darsda o'quvchilarga o'qituvchining murojaati shakli ham farqsiz emas. O'quvchilarni o'z ism-shariflari bilan atashi maqsadga muvofiqdir.

Pedagog sifatida o'zligini namoyon etishni talab qilish zarur holatlarda o'qituvchi tomonidan o'z xissiyotini aks ettirishni inkor etmaydi: u darslarda faqatgina ziyrak va mehribon, quvnoq, xushyor, ko'nglichan bo'libgina qolmasdan, balki jiddiy, xafa va noroziligi bilingan qiyofada bo'lishi ham kerak.

O'qituvchining pedagogik optimizmi, uning o'quvchilarga munosabatidagi ishonch, o'quv faoliyatini tashkil etishning turli-tuman shakllaridagi darsda ularning hamjihatligidagi izlanuvchanligini tashkil etish, o'quvchilarning ishlariga haqqoniy baho berish, ularga doimiy zarur yordam ko'rsatishga tayyor turishlik-bularning barchasi juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi, o'quvchilarda jamoaviy mehnat malakalarini hamda ijobiy ahloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

Umumiy ta'lim maktablarida musiqa darsining asosiy maqsadi – o'qituvchilarga musiqa san'atini go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdan iborat. Mazkur maqsad o'qituvchi oldiga o'quvchilarda musiqaviy - badiiy did ahloqiy-estetik xis-tuyg'ularni tarkib toptirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda musiqa

san'atiga nisbatan qiziqishni va musiqaviy faoliyatida badiiy extiyojni kuchaytirish, musiqa savodxonligi madaniyatini shakllantirish, musiqa-davr, hayot, inson xis-tuyg'ulari va orzu-umidlari ifodasi ekanligi haqida tushuncha hosil qilish kabi qator vazifalar qo'yadi.

O'quvchilarda musiqaga mehr va havas uyg'otish, ularning musiqa saviyasini oshirish uchun ashula va musiqa sohasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni har tomonlama kuchaytirish lozim. Boshlang'ich va 9-yillik maktablarning har birida xor to'garaklari, sharoit bo'lgan maktablarda cholg'u asboblari bo'lishi kerak.

Ayni vaqtda o'quvchilarga yakka tartibda musiqa o'rgatish ishini uyushtirishga e'tibor berish, bu ishga ota-onalar jamoatchiligini jalb etish lozim. Maktabda egallangan musiqa bilimi va malakalaridan kundalik hayotda, maktabda ertalik va kechalar o'tkazishda mustaqillik, «Mehrjon», «yangi yil», «navro'z», onajonlar bayrami va musiqa-san'at bayramlarida hamda ekskursiya va sayrlarga chiqqanda foydalanish kerak. Shuningdek, o'rganilgan qo'shiqlar uyda oila a'zolari oldida, o'rtoqlar davrasida aytilishi mumkin. 7-yillik o'qish davrida musiqa sohasida muntazam sur'atda ish olib borilishi natijasida o'quvchilar musiqa savodiga ega bo'lib, musiqa sevadigan, yirik musiqa asarlarini, shuningdek, kontsertlarni, radio va televideniya orqali beriladigan musiqali eshittirishlarni mehr qo'yib tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida yetarli tayyorgarlik bilan faol qatnashadigan kishilar bo'lib yetishishlari kerak. Bu tadbirlarni amalga oshirishda bosh tarbiyachilar, sinf raxbarlari va ota-onalar musiqa o'qituvchisiga yaqindan yordam berishlari zarur. Darsning har bir faoliyat turida doirachalar, shaqildoqlar, uchburchak, metallafon kabi turli bolalar musiqa asboblariida chalish, kuy va qo'shiqlarga mos raqs elementlarini bajarish, musiqa asboblariini chalinishini qo'l harakati bilan imitatsiya qilish, chapak chalish va dirijyorlik qilish kabi elementlardan keng foydalanish darslarni yanada qiziqarli va jozibali bo'lishini ta'minlaydi.

Musika darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun musika darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi:

1. U musika nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal-xor mashg'ulotlari, musika savodi, musika tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.

2. Musika boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'zi bilan, tasviriy san'at ranglar bilan, raqs san'ati harakat bilan ifodalansa, musika esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Yuqoridagi san'at turlarini ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz. Shuning uchun, ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqan.

3. Musika aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musika tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qayta-qayta tinglaganda uning yangi-yangi badiiy qirralarini xis etamiz.

4. Musika bolalarga aktiv emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musika darsidan bolalar xordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo'lib chiqadilar. Xullas, musika darsi o'zining aktiv psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

Shuningdek, musika darsi boshqa fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musika darsini hayot bilan boglashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Musika darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham, boshqa fanlardan farq qiladi.

IV. Musiqa darsining strukturasi 3 asosiy faoliyat turidan: musiqa tinglash, musiqa savodi va xor bo'lib qo'shiq kuylashdan iborat. O'rta sinflarda musiqa darsi 3 ta asosiy faoliyatlardan tuziladi:

1. Xor bo'lib kuylash
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglashdan iborat

Boshlang'ich sinflarda esa dars faoliyatlari 5 ta bo'ladi:

1. Xor bo'lib kuylash.
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglash
4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish
5. Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lishidan iborat bo'ladi.

Xorda kuylash - musiqaviy tarbiyaning jamoa faoliyati sifatida o'qituvchining bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Xorda kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayondir. Bunda bosh miyadagi nerv xujayralari ham faol ishga tushadi. U qo'shiq kuylash davomida o'quvchilarda ijobiy xis tuyg'ularning faolligini ta'minlaydi hamda o'quvchilarning samarali ishlashiga sharoit yaratadi.

O'qituvchi sinf imkoniyatlarini hisobga olgan xolda yil davomida o'rgatish uchun 10-12 ta qo'shiq tanlaydi va ularning vokal-ijrochilik darajasi va badiiy mazmuni maktab hayotiga mosligini inobatga olib, ularning ma'lum tartibga soladi.

O'quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi, bu malakalar ashulaning to'g'ri va ta'sirli aytilishini taminlaydi, bolalar ovozinig yaxshilanishiga va parvarish qilinishiga yordam beradi. Bolalarning ovoz apparatlari, musiqa o'quvi yoshiga qarab o'sadi. Shuning uchun ashula aytish malakalari, ovozning asosiy elementlari: nafasni rejaga solish, tovush hosil qilish, diktsiya, soz, ansambl dasturda har qaysi o'quv yili uchun alohida-alohida

beriladi. Ta'lim jarayonida bu elementlarning hammasi bir-biriga uzviy bog'lanib boradi.

Musika savodi – ma'lumki, umumiy ta'lim maktabi musika darslari tarkibidagi musika savodi o'zining musika haqidagi kompleks bilimlar doirasidan iboratligi bilan farq qiladi.

Ashula aytish jarayonida o'rganiladigan nota savodi elementlari bilan birga musika savodi turkumiga musika janrlari, ularning shakl va tuzilishlari, ifoda vositalari, xalq va kompozitorlik musiqasining mohiyati haqidagi tushunchalar, ijrochilik turlari, cholg'u asboblari va ularning tovush tembrlari va boshqalar kiradi. 7-yillik musika ta'limi va tarbiyasi jarayonida mazkur bilimlar majmuasi asosida o'quvchilarning musika savodxonligi tarkib topishi lozim. Bu musika madaniyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Musika tinglash – o'quvchilarning musiqiy taasurotni boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o'stirish va musiqiy didini tarbiyalashda darsning musika tinglash faoliyati katta rol o'ynaydi. Darsning bu faoliyat turida o'quvchilar musika o'qituvchisi ijrosida, elektrofon, magnitofon yordamida eng nodir musika asarlarining na'munali ijrosini tinglaydilar. Xor, orkestr, ansambl va yakkanaovozlar ijrosida turli janrdagi klassik asarlar bilan tanishadilar, san'atning katta dargoxiga ilk bor qadam tashlaydilar.

Musiqaning san'at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat va hayot go'zalligini voqelik va xatti-harakatlardagi qaytarilmas, ko'z ilgamas qirralarini musiqiy ohangdagi rang-barang bo'yoqlarda idrok etadilar, chuqurroq xis etadilar. Kuylar o'quvchilarning xotirasida chuqur o'rnashib qolishi uchun bu kuylarning ohanglarini o'quvchilar bilan kuylab ko'rish tavsiya etiladi. Ayniqsa, asar musika asbobi ijrosida tinglanib, so'ng kuylab ko'rish orqali qayta mustahkamlanadi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, asarlarni yaxshi esda qoldirish uchun kamida 2-3 marta eshittirish, har gal kuyning yangi-yangi dinamik qirralari bilan o'quvchilarni tanishtirib borish lozim. Kuylarni tinglash bilan o'quvchilar musiqaning turli janrlari - marsh, qo'shiq va raqs haqida batafsil tushunchaga ega

bo'ladilar. Darsning har uch asosiy qismi alohida-alohida ajralib qolmasligi, aksincha ular bir-biri bilan uzviy bog'liq xolda dars-ning mazmuni bir butun bo'lishini ta'minlashi lozim. O'quvchilarning ijrochilik mahoratini takomillashtirish va ularning o'zaro uygun kuylashini mustahkamlashda ba'zan ularni (sinf saxnasi)ga chiqarib kuylatish samara beradi. Qo'shiq tugal o'rganib bo'linganch, xaftada yoki chorak oxirida o'quvchilar «Sinf kontserti» beradilar. Saxnaga chiqish, sinfdoshlari orasida o'z o'rnini topib turish, kuylaganda birlarini xis qilish va o'z joyiga borib o'tirish kabi saxna madaniyatiga qat'iy amal qila borish o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga va xulqiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. «Saxnada» kuylash o'quvchilarning qo'shiqni qay darajada o'rganib olganligini aniqlash, asarning ayrim jumllalarini «Pishitib» olish va qo'shiqni tantanali sharoitda namoyish qilish imkoniyatini beradi. «Sinf kontserti» o'quvchilar uchun cheksiz quvonch baxsh etuvchi mashg'ulotga aylanadi.

II BOB. MUSIQA FAOLIYATLARI ASOSIDA NOAN'ANAVIY DARS TASHKIL ETISH

Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish.

Bunda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib uni ifodali, "jonli" qilib ijro etib o'quvchilar diqqat e'tiborini asarga jalb etadi. Ularning nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytirib emotsional his - tuyg'ulariga ham faol ta'sir etadi. O'qituvchining darsga ijodiy tarzda yondoshishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- musiqa tarbiyasida yangi metod va pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

- hayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalash:

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, yana bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi zarur.

Musiqa madaniyati darsi olib boriladigan sinf xonasi did bilan na'munali jihozlangan bo'lishi muhim rol o'ynaydi.

Texnika vositalari, metodik ko'rgazmali qurollar, pianino cholg'u asbobi va o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan jixozlangan bo'lishi yangi dastur va pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda reja tuzib qo'llashlari kerak. Darsdagi barcha faoliyatlarning maqsadi va mazmuni, hayot bilan bog'lab uzviy olib borikishi talab etiladi.

Musiqa darsi boshqa darslarga qaraganda o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar

uyg'itishi bilan ajralib turadi. Musiqa darslari quyidagi spetsifik hususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi:

1) Musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal – xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish, musiqaga mos ritmik xarakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.

2) Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni "tili" bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan, tasviriyl san'at ranglar bilan, raqs san'ati xarakat bilan ifodalansa musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi.

Yuqoridagi san'at turlarini ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz. Shuning uchun ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqan

3) Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qayta-qayta tinglaganda uning yangi badiiy qirralarini his etamiz.

4) Musiqa bolalarga faol emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hammada ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darslaridan bolalar hordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar. Quvnoq, xursand bo'lib chiqadilar. Xullas, musiqa darsi o'zining faol psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

Xor bo'lib kuylash

Musiqa pedagogikasi tajribalari olti yoshdagi bolalarning psixologik hamda ma'lum darajadagi musiqaviy malakalariga, musiqaga bo'lgan qiziqishlariga asoslanib, ular musiqa darslariga qatnashishga tayyor ekanligini ko'rsatadi.

Bu yoshdagi o'quvchilar musiqa san'ati bilan bolalar bog'chalarida, oilada, radio va televideniya da beriladigan eshittirish va ko'rsatuvlar orqali

oshno bo'lib kelganlar. Darsda bolalarning quvnoq kuy va qo'shiqlarni tinglash, kuylash, raqs elementlarini bajarish hamda chapak va cholg'u asboblarni chalish ishtiyoqlari tez oshib boradi. Chunki bu yoshdagi bolalarda hali diqqat - e'tibor uncha turg'un bo'lmaydi, ular ko'proq serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar.

Bunga esa darsdagi musiqa faoliyat turlarining maqsadga muvofiq almashib turishi qo'l keladi. Shu bilan birga, musiqa haqidagi yangi tushunchalar paydo bo'lib, musiqani ongli o'rganishga qiziqish kuchayib boradi. Buning natijasida kuylashda va boshqa amaliy faoliyatlarni bajarishda faollik, uyushqoqlik, ifodalilik va obrazlilik kabi hususiyatlar tobora aniq namoyon bo'lib boradi. Ammo bu yoshda bolalar hali ko'proq erkalatishga shirin so'zga moyil bo'ladilar. Shunga ko'ra bolalarni musiqaga tobora qiziqtirishga, butun dars davomida ularning quvnoq kayfiyatini saqlashga o'qituvchi o'zining ochiq chehrasi, samimiy muomalasi va yoqimli xatti – harakati orqali erishadi.

Boshlang'ich sinflarda bolalarning ovoz apparatlari to'la shakllanmagani sababli hali ancha zaif va nozik, ovoz pardalari esa kuchsiz bo'ladi. Ovoz registri, kuchi va tembri bo'yicha o'g'il va qiz bolalarda deyarli farq sezilmaydi.

Ayrim bolalarning ovozlari normal holatda bo'lsada, ular sozga tusholmaydilar. Bunga sabab ularda musiqa eshitish (slux) organi bilan tovush hosil qilish apparati o'rtasida musiqa tovushlarini biland-pastligini sezish bo'yicha umumiy koordinatsiya hali unchalik yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Natijada yil boshida bolalarning musiqa – uquv qobiliyatlari, musiqa tinglash ko'nikmalari va kuylash malakalari bo'yicha saviyalari bir xil bo'lmaydi. Shularni hisobga olib birinchi darsdan boshlab bolalarni musiqaga qiziqtirish yo'li bilan, ularning musiqa uquv qobiliyatlari, kuylash hamda ovoz sifatlarini sinchiklab o'rganib olish va yuqoridagi sifatlarga ko'ra, ularni uch guruhga bo'lish mumkin.

Musiqqa savodi

Musiqqa madaniyati darslari jarayonida, musiqqa savodi mustaqil dars faoliyatlar jarayonida musiqqa asarlarini badiiy o'rgatish va ijro etish ishlarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo'llaniladi. Musiqqa savodi mazmuni o'quvchilarni tobora shakllantiradi va ularni doirasini tobora kengaytirib, chuqurlashtirib boradi. Shunday qilib musiqqa savodi darsining ta'lim vazifasini bajaradi. Musiqqa savodi (faoliyatining) asosiy negizi va pedagogik maqsadi, yangi dastur bo'yicha berilgan chorak mavzularini kuylash tinglashga doir asarlarini savodli taxlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Ular o'quvchilarni kundalik hayotidan olinayotgan taassurotlari va musiqiy tajribalari asosida o'rgatiladi.

Musiqqa savodi quyidagi bosqichlar bo'yicha o'rgatiladi.

1. Bolalar diqqatini musiqaning ifoda vositalari – kuy, registr, temp, ritm, dinamik belgilarni o'rgatish.
2. Ovoz sozlash va qo'shiq ijro etish qoidalariga doir bilimlar, chapak va cholg'u asboblari chalish qoidalariga amal qilishga o'rgatish.
3. Musiqqa ijodkorlari: "kompozitor", "ijrochi", "tinglovchi" mavzuning mazmuni va o'rganiladigan asarning mualliflari haqidagi ma'lumotlar, musiqqa savodi orqali amalga oshiriladi.

Musiqqa tinglash

Musiqqa tinglash, musiqqa madaniyati darslarining asosiy omili hisoblanadi, chunki musiqaning yangrashi ongli ravishda idrok etib, uning xarakteri, mazmuni ongli ravishda o'zlashtiriladi.

O'quvchilarni hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqqa asari zahirida ma'lum, his – tuyg'u va fikr aks ettiriladi. Biz musiqqa darsining qaysi faoliyatini olmaylik, u avval musiqani tinglab musiqani idrok etishdan boshlanadi va o'quvchilarning ruhiyatiga ta'sir etadi, shuning uchun musiqqa tinglash darsning yetakchi faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Darsda tinglanadigan har bir musiqiy asar badiiy, g'oyaviy mazmun jihatidan chorak dars mazmuniga bog'liq bo'ladi va ilmiylik, davomiylik, va izchillik tamoyillariga amal qiladi.

Musiqqa tinglash bir necha bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1. O'quvchilar e'tiborini musiqiy asarga jalb qilish va o'qituvchining kirish so'zi.
2. O'qituvchi ijrosida yoki texnika vositasi yordamida asarni tinglash.
3. Asarni suhbat yo'li bilan musiqiy va badiiy g'oyaviy jihatdan oddiy taxlil qilish.
4. Asarni bir butunligicha qayta tinglash va asar haqida o'quvchilarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazish.

Musiqqa tinglash metodlari

1. Ko'rgazmali metod:
–o'qituvchining jonli ijrosi, rasm vositalari orqali bolalar cholg'u asbobi, ritmli xarakatlar.
2. Amaliy metod:
-o'quvchilarning musiqiy asarga qiziqishini oshirib, ularni hayotiy tajribasiga bog'lab tushuntirish va musiqiy asarga munosabatini faollashtirish.
3. Taqqoslash metodi:
bunda asarlarning janrlar ijrochilik xususiyatlari, templari, mazmunlari taqqoslanadi, musiqiy didini o'stirishga yordam beradi.

Musiqqa darsini 5 ta faoliyati turlari "xor bo'lib kuylash, musiqqa savodi, musiqqa tinglash, musiqqaga mos xarakatlar bajarish va bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish" uzviy bog'lab boriladi va mantiqiy bir butunlikga erishish maqsadga muvofiqdir.

4. Og'zaki metodlar:

- o'qituvchi tinglanadigan asar mazmunini bolalar hayotiga bog'lab yoritiladi. Asar mazmuniga qarab mualliflarni, kelib chiqish tarixi haqida qiziqarli xikoyalar qilib beradi.

Bolalar cholg'u asboblari musiqa ritmiga mos jo'r bo'lish

Bolalar cholg'u asboblari musiqa ritmiga mos jo'r bo'lish. Bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg'ulotdir, chunki bolalar cholg'u asboblari jonli, tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir o'quvchini qiziqtiradi.

Bolalar cholg'u asboblari birinchi navbatda o'quvchilarda ijrochilik elementlari orqali ijodkorlik, musiqiy o'quv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa madaniyati darslarida bolalar cholg'u asboblari foydalanish yaxshi natijalar berishi bilan birga o'quvchilarni darsga intiluvchanligini, qiziqishini, musiqiy uquvini oshiradi.

Musiqa darslarida qo'llaniladigan bolalar cholg'u asboblari ikki turda bo'ladi. Kuychang va kuychang bo'lmagan (shovqinli) cholg'u asboblari kiradi.

1. Kuychang cholg'u asboblari metallafon va ksilofon kiradi
2. Kuychang bo'lmagan cholg'u asboblarga: doirachalar, oddiy cho'p qoshiqlar, kichik shiqildoqchalar, barabanchalar va uchburchaklar kiradi.

Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish jarayonida turli metodlar amalga oshiriladi:

1. Avval bolalar kuyni tinglab, chappak chalish va ritmik jo'r bo'lish.
2. Musiqaga ritmik jo'r bo'lishni aniq bajarganlar, bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'ladilar.
3. Keyinchalik esa passiv bolalar to'g'ri ijro etishga intilish maqsadida ular ham jo'r bo'ladilar.
4. Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish har gal har xil cholg'u asboblari bajariladi.

5. Sinfni 2 guruhga bo'lib 1 – guruh chappak va cholg'uda 2 – guruh esa ovoz usul berish (bum-baka- baka- bum) bilan amalga oshirish mumkin.

6. Bolalar cholg'u asboblari ritmik jo'r bo'lish, grafik ko'rsatilgan ritmik tuzilmalarga qarab, chalish ham o'quvchilar ijodkorligini oshiradi, faollashtiradi, ijrochilik malakalarini va musiqiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantiradi.

Musiqaga hos xarakatlar bajarish

Boshlang'ich sinflarda ritmik xarakatlarni bajarish, o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ovoz apparatlari nozik, diqqat e'tibori tarqoq, serxarakat, o'yinqaroq, xotirasi, nutqi to'liq rivojlanmagan bo'lganligi sababli musiqa darsida faoliyat turlari tez- tez almashib turishi lozim.

Musiqaga mos raqs, o'yin xarakatlarini bajarish, o'quvchilarni diqqatini jamlashda, xotirasini mustaxkamlashda va jismonan o'sishga yordam beradi. Dars davomida quyidagi xarakat turlaridan foydalanish tavsiya etiladi: marsh musiqalariga qadam tashlash, yugurish, raqs elementlarini bajarish, mustaqil o'yinlar o'tkazish, musiqaning xarakteriga mos, turli qo'l va tana xarakatlari bilan ifodalanadi.

Ma'lumki milliy musiqamiz madaniyatida raqs muhim o'rin tutadi va unga har bir bola qiziqadi. Raqs xarakatlari musiqa darsida o'quvchilar faollashishini oshiradi. Eng muhimi shundaki raqs va ritmik xarakatlar vositasida bolalarning musiqiy iqtidori, ritm tuyg'usi faol rivojlanadi.

Har bir xarakat turini o'qituvchi oldindan belgilaydi va o'zi uni aniq go'zal va ifodali qilib ko'rsatib beradi. Xarakatlarni bajarishdan oldin, unga doir musiqani mazmunini avval ongli ravishda tinglab yoki kuylab, so'ngra xarakatlar bajarish yaxshi natija beradi.

Bolalar musiqali o'yinlarga ham juda qiziqadilar. Ko'p musiqiy asarlar mazmunida o'yin metodlaridan foydalanish mumkin. Dars jarayonida bajarilgan har bir musiqiy xarakat turi, musiqali o'yinlar o'quvchilarni

xotirasini mustaxkamlaydi, nutqini o'stiradi, jismonan sog'lom bo'lishga ko'maklashadi va ularni ruhlantirib, musiqa darsiga qiziqishini oshiradi.

Bunda darsning tuzilishi pedagogik maqsadlarga qarab darsni xoxlagan dars faoliyatidan boshlash mumkin. Maqsad, o'quvchilarni musiqaga qiziqitirish, musiqiy qobiliyatlarni o'stirish, dars faoliyatlarini bir-biri bilan chambarchas bog'lab mazmun jihatdan mantiqiy bir butunlikga erishishdir.

Demak, yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun, musiqa o'qituvchisi ijodkor bo'lishi, musiqadan zarur bilimlarga hamda ashulachilik malakalariga ega bo'lishi lozim.

II.1 Musiqa va milliy ma'naviyat mazmuni

O'zbek xalqi jahon tarixiy taraqqiyotiga o'zining qadimiy ilm-fani, adabiyoti, san'ati va madaniyati bilan ulkan hissa qo'shgan buyuk millatdir.

Mamlakatimiz Prezidenti «Biz uchun mustaqillik eng avvalo, o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf - odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo'tabar shu zaminda har bir xonadonda tinchlik, osoyishtalik, barqarorlikni saqlashdir».

Darhaqiqat, madaniyat va ma'rifat bilan bevosita bog'liq bo'lgan muammolarni hal etmasdan, mustaqillik haqidagi g'oyalar va tushunchalarni xalqning ongiga chuqur singib, e'tiqodiga aylanib ketishiga erishmasdan turib, mustaqillikni mustahkamlab va barqaror etib bo'lmaydi.

Milliy tiklanish juda keng, chuqur, murakkab tarixiy jarayon bo'lib, u millatimiz hayotining hamma sohalarini – iqtisodiyotini, siyosatini, ma'naviyatini, ilm-fan, til tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me'morchilikni ham, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni ham qamrab oladi.

Milliy ma'naviyatimiz rivojida musiqa ham muhim o'rin tutadi. Milliy musiqa san'atining eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ommasiga keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalardan biridir. Musiqa ham real voqelikni aks ettiradi. Musiqaning milliy ma'naviyatimizga ta'sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbot qilgan.

Xususan, milliy madaniyatda musiqa yuksak tuyg'ular, zavq-shavqli g'oyalar olamini ochib beradi. Odamlarni ma'naviy jihatdan boy, sof barkamol qiladi.

Bola hali qo'lga qalam ushlashni, o'qib yozishni bilmagan vaqtdayoq musiqani his qila oladi. Ko'pincha shu dastlabki taassurotlar musiqaga bo'lgan munosabatlarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun umumiyta'lim maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida musiqa ta'limiga ham e'tibor berilgan. Musiqa, avvalo, bolalarning his-tuyg'ularini mayinlashtiradi.

Musiqqa asarlarini his etish kabi ularda ko'pgina insoniy fazilatlarini uyg'otadi. Albatta, insoniy fazilatlarini kamol toptirishda adabiyot, tarix, sport va boshqa sohalar katta o'rin tutadi.

Binobarin, nazm va musiqqa doimo yonma- yon yashaydi. Tabiat taasurotlari ostida tug'iladi, qolaversa, bog'cha va maktabda shakllanib boradi. Musiqqa darslari o'quvchilarni faqatgina nafosat jihatdan emas, balki keng ma'noda ma'naviy- axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Avlod- avlodga o'tib kelayotgan, ne-ne zamonlar zayliga bardosh berib, xalqning orzu- armonlari, o'y-intilishlarini mujassam etgan kuy – qo'shiqlarimiz, maqomlarimiz barcha turdagi maktablar, pedagogika institutlari dasturlaridan kengroq joy olsa yaxshi bo'lar edi.

Zamonamizning zabardast yozuvchisi, jahonga mashqur adib chingiz Aytmatov «Kunda» romanida yozadi: «Hayot, o'lim, muhabbat, shavq va ilhom hammasini musiqqa aytadi, zotan, biz musiqqa vositasida eng oliy hurlikka erishamiz, bu hurlik uchun ongimiz yorishgan zamonlardan boshlab, butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga musiqadagina erishganmiz».

Xalqimiz yaratgan musiqqa durdonalari, har soniyada - tarbiyada, mehnatda, ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z fidoiysini topadi. Milliy musiqqa atrofdagi hodisalarni go'zallikni idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi, nozik did va hur fikr bilan qurollantiradi, ma'naviy olamni kengaytiradi. Shu bois musiqani tilsiz falsafa deb bejiz aytishmagan .

Musiqqa inson qalbini yumshatishi, unda iymonga dalolat etuvchi mehr- muhabbat va rahmdillik tuyg'ularini uyg'otishi mumkin. Shu bilan birga, maqomlar mazmunida buyuk davlat mafkurasiga muvofiq bo'lgan tasavvuf ta'limoti g'oyalarini badiiy ifoda etish vazifasi ham qo'yilgan. Tabiiyki, ushbu murakkab ilmiy masalalarni tadqiq etish har tomonlama yetuk musiqashunos olimlar zimmasiga yuklatilgan.

Inson tarbiyasi, kamoloti, har qanday jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Chunki jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishi Shu jamiyatdagi tarbiyasiga bog'liq .

Tarbiya bu shaxsni ijtimoiy iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga muntazam ravishda ta'sir etib borishdan iborat bo'lgan uzluksiz jarayon. Shunday ekan yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ularni mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lida safarbar etish muhim misoldir. Mustaqil Respublikamizda ma'naviyat va madaniyat masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda .

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda inson ma'naviy hayotini shakllantirish maqsadida musiqa madaniy hayotga chuqurroq kirib borishida keng imkoniyatlar yaratilmoqda . Bunda ma'naviyat va ma'rifat gazetasi markazi xalqaro madaniy – ma'rifiy alohalar majmuasi kabi ijodiy muassasalarning tashkil etilishi bastakorlar uyushmasi va jamiyatdagi ijodiy siljishlar «O'zbekiston vatanim manim» nomi bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan an'anaviy tanlovlar madaniy ma'rifiy isloxlarni amalga oshirishda metodlar qo'llanmoqda. qadimiy va boy tajribaga ega o'zbek milliy musiqa madaniyati istihbolini amalga oshirish ta'lim tarbiya ishlari bilan shug'ullanish maqsadida asrlar davomida rivoj topib kelganligini ta'kidlash joizdir.

Bu maktablarda musiqa ta'limi-tarbiyasi bevosita oshirib borilgan. Ushbu maktablarning faoliyat mazmunida insonni dunyoga kelishidan kamol topib butun umri davomida musiqa haqiqiy ma'nodagi tarbiya vositasi ekanligi o'z ifodasini topgan .

Musiqa so'z san'ati va adabiyoti bilan uzviy holda bog'lab o'rganilganligi musiqa nomi va amaliyoti rivojida katta hissa qo'shadi.

Shaxs kamolotida musiqa tarbiyasini oshirish albatta ta'lim metodikasiga bevosita bog'liqdir. Musiqa tarbiyasi metodikasi fan sifatida tizimiga mansub bo'lib o'zining mustaqil o'rniga ega. Bu fan musiqa tarbiyasi metodikasi

mazmuni, metodlarini yanada takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o'rganadi. Musiqa tarbiyasi metodikasi tarbiya muassasalarida nafosat, musiqashunoslik fiziologiya, ruxshunoslik fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi. Musiqa tarbiya metodikasi Ayniqsa nafosat musiqashunoslik fanlari bilan uzviy bog'liq. Nafosat nomi uning metodikasining asosini tashkil etsa, tarbiyaning mazmun va metodlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning quylash faoliyatlaridagi muammolarni hal qilishda metodika, fiziologiya tadqiqotlariga tayaniladi.

Musiqa tarbiyasi metodikasining moqiyati musiqa san'ati hamda madaniyati o'sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega. Metodikaning fan sifatida rivojlanishi jamiyatda maorif va musiqa san'atini takomillashib borishi bilan bevosita bog'liqdir.

Shular bilan birgalikda musiqa tarbiyasi metodikasi umumiy printsiplarini ilgari suradi. Bo'lar onglik badiiy va texnik rivojlanish printsiplarda ega bu printsiplar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish musiqaga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, badiylikni tarbiyalashga qaratilgandir.

Musiqa asarni ongli idrok etish asar mazmunini ochishda va o'quvchilarga musiqiy tajribalarni to'plashda, ularning ma'naviy dunyosini boyitishda yordam beradi. Musiqa tarbiyasi emotsional onglik printsipli uyhunlashish ko'payishi orqali tinglanadigan asarni to'g'ri baholay olish imkoniyatlarini rivojlantiradi:

Ularining musiqaga qiziqishida didlari tarbiyalab boriladi. Badiiy va texnik boshich printsipli asarning badiiy va ifodali ijro etish uchun malakali kadrlar talab etadi. O'quvchilarda kuylash malakalarini egallashlariga e'tibor beradi. O'quvchilarga musiqaning rivojlanish printsiplari to'g'risidagi tasavvurlarini Shakllantirish, qobiliyatlarining rivojlantirilishi natijasida ular yana musiqiy tushunchalarni bilib olishadi. Musiqiy tarbiya metodikasi tarbiya

jarayonida ko'pgina omillarga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Kishilarning musiqiy madaniyati faqatgina maktabning ta'siri ostidagina shakllanmaydi. Uyda albatta tevarak atrof, ommaviy axborot vositalari yaxlit xildagi ijtimoiy vositalar tizimi ham katta rol o'ynaydi. Musiqiy tarbiya metodikasi ta'lim metodlarini tashlashda ham pedagogika ravnaqi metodlarini ishlab chihishda quyidagi muammolar mavjud jumladan:

A) metodlarning musiqa tarbiyasi, mazmunini sinovi, ijro bog'liqligi.

V) o'quvchilarda musiqiy va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi.

S) musiqiy qobiliyat va ovozning rivojlanishi, musiqani idrok etishning yosh va yakka tartibdagi xususiyatlari.

D) O'quvchilarning rivojlanishida musiqiy faoliyatlarning turli Shakllarda foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liqligi.

Metodikaning vazifalariga esa o'quv tarbiya jarayonini turlicha Shakllantirish yanada rivojlantirish musiqa darslaridan tashhari musiqa mashg'ulotlari, sinfdan va maktabdan tashhari ishlariga to'garaklar, bayramlar, ko'ngil ochish kechalari kiradi. Musiqa tarbiyasi metodikasi musiqa faniga yaqin bo'lgan adabiyot va tasviriy san'at, tarix bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Bu esa o'quvchilarning tarbiyasini har tomonlama samarali amalga oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda dars yetakchi omil hisoblanadi. Chunki o'quvchilarning ommaviy tarzda jalb etilishi maktabda musiqa fani boshqa fanlardan o'zining badiiyligi va qiziqarliligi, zavq-shavq uyg'otishi bilan ajralib turadi. Eng muhimi musiqa bolalarning ahliy, axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa aqlni peshlab, tafakkurni charxlaydi. Musiqa darslari va mashg'ulotlarida o'quvchilar tarbiya va milliy madaniyatimizni o'rganib, bilim saviyasini kengaytirib borishni egallaydi.

Bobokalonlarimizdan Abu-Nasr Al Farobiyning ma'rifat parvarlik g'oyalar tizimida bola, shaxsini tarbiyalashda musiqa san'atining roli maqsadi va

vazifalari alohida e'tirof etiladi. Unda inson hayotida musiqa jamiyati hayd qilinib, «Ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo'lmaganda insonning axvoli ne kechar edi»- deya xitob qilinadi.

Alloma Abu Ali Ibn Sinoning musiqiy ma'rifiy qarashlarida ham musiqa shaxsning ma'naviy va jismoniy madaniy tabiatiga ta'sir etuvchi hudratli vosita sifatida ta'rif beradi. Bolada juda yoshligidan boshlab musiqa hissiyotini tarbiyalash lozim, bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi degan g'oya ilgari suriladi. Alloma mashqur «Tibbiyot qonunlari» kitobida bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uxlatish uchun odat bo'lib kelgan musiqiy allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan ba'zan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan ehtiyoj hosil bo'lgan deb yozgan edi.

Shunday qilib olimlar, mutafakkirlar musiqa nafaqat insonga samarali ta'sir etuvchi vosita balki o'z mohiyati, jamiyatdagi maqsad va vazifalariga ko'ra alohida bir fan sifatida tadbih etishga davrlar o'tib ularni tor fikrlarini ta'lim-tarbiyada tadbih etilib, ta'kidlaganidek ommaviy xalq musiqa pedagogikasining vujudga kelishida asos bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrda shaxs ma'naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'lim tarbiyasi ishlarini sifatli boshichga ko'tarishni taqozo etadi. Bugungi kunda musiqa, ta'lim tarbiyasining maqsadi va vazifalari nig'oyatda muhim.

Musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsadi va avlodni musiqa me'rosimizga vorislik qiladigan hamda umumbashariy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan yosh qadrlaydigan madaniy inson sifatida voyaga yetkazishdan iborat, buning uchun har bir o'quvchining musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyohini oshirish musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli

o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart sharoitlar yaratib berish maktab musiqa ta'limi tarbiyasining asosiy vazifasidir.

Musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsad va vazifalari amalga oshirish maktabdagi musiqa darslariga bevosita bog'liq.

Musiqa ta'lim tarbiyasining kontseptsiyasida maktabda musiqa fani boshqa fanlar hatori o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta'limini sifatli boshichga ko'tarish uchun maktabda teng xuquqli fan hisoblanadi. Bu esa hozirgi zamon o'quvchisidan dars mashg'ulotlariga ijobiy munosabatda bo'lishi, o'quvchilar musiqiy faoliyatlarini oshirishni to'g'ri tashkil etish va boshqa rish faollikni talab etadi. Musiqa dars mashg'uloti sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarni esa har bir o'qituvchi bilishi kerak.

Birinchidan musiqa tarixi nazariyasi ijrochilikka doir turli na'munalardan ayrim mashqlari, musiqa savodi mashg'ulotlari, musiqa tinglash, musiqa ta'limi va adabiyoti, bolalar cholhu asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlari, musiqada ijodkorlar faoliyatlaridan iborat darslar kiradi.

Ikkinchi musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan tasviriyl san'at bilan, raqs badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqiy tovushlaridan vujudga kelgan ohang vositasidan foydalaniladi.

Uchinchidan musiqa bolalarda faol hissiy ta'sir ko'rsatadi, ijobiy ko'rsatmalar, kechinmalar uyg'otadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha dasturi bir dars o'zida ta'limning musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodxonligi bolalar cholg'u asboblari va ritmik harakatlar bajarish musiqa ijodkorliri kabi boshichlar bir biri bilan bog'lanib yaxlit holda amalga oshirilishi nazarda tutilishi kerak. Zamonaviy mashg'ulotlardan musiqa idroki yetakchi faoliyat sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki bu boshichda o'quvchilar faoliyatida ko'proq o'yin xususiyatlari bo'lib turadi. Shunday qilib ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari to'laligicha amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni ilmiy uslub jihatdan yetakchi darajada

ta'minlash, milliy musiqa ta'lim mazmunini anglash kabi muhim tadbirlar, shubxasiz musiqa tarbiya samaradorligini oshirishishga imkon beradi. Bu esa musiqani maktab hayotida o'quvchilar qalbida keng o'rin egallashi va ularning ma'naviyatini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

II.2. Yosh avlodni donishmadlarimizning musiqa ilmiga oid qarashlari va maqomlarimiz orqali tarbiyalash

“Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy masala qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiqdir.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi”.

Shu ma'noda Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida ifodalangan sharqona ma'naviyat asoslaridan foydalanish xususan, ularning musiqa va uning tarbiyaviy ahamiyatga oid ta'limotlari, g'oyalari va qarashlaridan zamonaviy talqinda foydalanish o'quvchilar tafakkurida milliy musiqaga oid tushunchalarni shakllantirishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Shu o'rinda Abu Nasr Farobiyning musiqa haqidagi fikrlari e'tiborga loyiqdir. Farobiy musiqani tarbiyaviy fan deb ataydi va uning ahamiyati haqida shunday deydi: “Bu fan shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadi va muvozanatda bo'lmaganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu tanning sog'ligi uchun ham foydalidir, chunki tan kasalga uchrasa, ruh ham so'liydi, ojizlashadi, tan qiyinchilikka uchrasa, ruh ham azobga uchraydi. Shu sababli tanning davolanishi ruxni davolash orqali amalga oshiriladi, ovozlarning ta'siri ostida ruhiy quvvatlar o'z substantsiyasiga moslashadi va tartibga, muvozanatga keladi”.

Musiqa madaniyati millatimiz ma'naviy hayotida ulkan o'rinni egallagan. O'zbek milliy musiqa san'atining janrlarining eng katta qismi Maqomdir. Maqom nima? Salobatli maqom turkumlarida qanday g'oya yoki

ta'limotlar ifoda etilgan? Nima sababdan maqom san'ati ko'p asrlardan buyon o'z mohiyati, demakki, badiiy qiymatini yo'qotmasdan kelmoqda?

Bu kabi savollar aslida tubdan serqirra va bir-biriga tutash madaniy-tarixiy-nazariy masalalar bilan uzviy bog'lanib ketganki, natijada ularga bir yo'la yoki shu damdayoq bir jihatli javob berish mushkuldir. Shu bois qayd etilgan savollarimizga bu san'at turidan javob axtarish maqsadga muvofiq ko'rinadi

Maqomlar tarixini o'zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davr mazmunini maqomlarning makon-zamon nuqtai nazaridan juda qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy ohang qatlamlarini o'rganish tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda hozirda bizga ma'lum tom ma'nodagi maqomlar bo'lmagan albatta. Zotan bizgacha yetib kelgan maqomot tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma'lum bosqichi bilan shartlanganki, bu (ikkinchi davr) xususida o'z o'rnida mufassalroq to'xtamga o'tamiz.

Ta'kid joizki, maqom kuy ohanglarini qadimiy qatlamlarini o'rganishga ko'mak bo'luvchi maxsus musiqiy risolalar bo'lmasa-da, ammo bu borada eng asosiy va muhim manbaalar bizning davrga qadar yetib kelgan. U ham bo'lsa ajdodlarimizdan ulkan ma'naviy meros qolgan "Shashmaqom", "Xorazm maqomlari" va "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari"dir. Maqom kuylarining xususiy "til" tuzilish (sintaksis) qurilmalarini malakali idrok va tahlil eta olish asosida ular tarkibida uyg'unlashgan turli davr musiqiy qatlamlarini aniqlab olish imkoniyati mavjud. Shu asnoda O'zbekistonda mavjud maqomlar (Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari) musiqasiga nazar tashlar ekanmiz, uning har biri o'zgacha tarovatli kuy-navolari negizida eng mukammal darajada uyushgan parda (tovush) tizilmalari borligi e'tiborimizni o'ziga jalb qiladi. 7 ta asosiy pardalari o'zaro uyg'un, ohangdosh tovushlar nisbatiga qurilgan bu nag'amot uyushmalari kim tomonidan va qachon ijod etilgan Bu borada yuritilgan mantiqiy fikr-mulohazalar asosida ularning shakllanish vaqtini keyingi davrlarga, ya'ni musiqa san'ati taraqqiy etgan asrlarga taaluqli deb o'ylash mumkin. Biroq jahon musiqa tarixi bunday xulosani inkor

etadi. Chunki, maqom pardalariga o`xshash yeri asosiy pog`onali (pardali) tovush tizilmalari sharq-u g`arb musiqa madaniyatiga juda qadim zamonlardan ma`lumdir. Xususan, qadimgi yunonlar bu kabi parda uyushmalarining bir necha turlarini bilibgina qolmay, balki ularning inson tarbiyasida alohida muhim o`rni borligini ham ta`kidlaganlar. Donishmand Fisog`urs (Pifagor) esa mukammal pardalarning inson ruhiga favqulodda ta`siri sabablarini ilmiy bilish maqsadida ularni matematik usullar bilan o`rganib chiqqan (bu usullar keyinchalik o`rta asr sharq musiqashunos olimlari tomonidan ham qo`llangan). Pirovardida ularning tarkibida yetarli me`yorda uyg`un (ohangdosh) tovushlar nisbati (oktava, kvinta, kvarta) borligini hamda ularning sonlardagi ifodasi dastlabgi to`rtib raqamga muvofiq kelishini (oktava-2:1; kvinta-3:2; kvarta-4:3) aniqlangan.

Demak, mukammal uyushgan parda tizilmalari dastlab ilmiy-nazariy asosda ham ijod etilmagan, balki ularda mavjud go`zal ohang uyg`unliklari ilmiy asosda kashfetilganedi.

Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko`ra maqomlarning eng qadimiy na`munalari payg`ambarlardan meros qolgan. Xususan, XVI asr ikkinchi yarmi – XVII asr birinchi choragida yashab ijod etgan vatandoshimiz, mashhur musiqachi va olim Darvish Ali Changiyning “Tuhfatus-surur” nomli risolasida xabar berishicha, avvaliga yetti payg`ambar nomlari bilan bog`liq yettita maqom bo`lgan. Bunda “Rost” maqomi – Odam alayhissalomdan, “Ushshoq” –Nuh alayhissalomdan, “Navo”–Dovud alayhissalomdan, “Hijoz”–Ayub alayhissalomdan, “Husayniy”–Yoqub alayhissalomdan va “Rahoviy” –Muhammad sallallohu alayhi vassalamdan meros qolganligi haqidagi rivoyatlar bayon etiladi. Muallif bu axborotni yetkazishda Xo`ja Abdulqodir ibn Marog`iy, xo`ja Safiuddin ibn Abdulmo`min, Sulton Uvays Jaloir kabi juda obro`li ustozlar fikriga tayanganligini ham ma`lum qiladi.

Shuni aytish kerakki maqomlar musiqasiga oid “maqom” atamasidan avval “yo`l” ma`nosini anglatuvchi “roh”, “tariqa”, “ravish” kabi atamalar qo`llanib kelganligini Darvish Ali Changiy bayon etgan ma`lumotlarni quvvatlashga xizmat

qilishi mumkin. Olloh taolloning yer yuzidagi elchilari bo`lgan payg`ambarlarning insonlarga chinakam baxt-saodatga erishish yo`llarini ko`rsatganlar. Ulardan qolgan ma`naviy ta`limot na'munalari jamoa-qavmlar orasida alohida e`zozlanib, avloddan-avlodga go`zal ruhiy meros sifatida o`tib kelgan. Inson tinglovi va idroki uchun eng ma`qul va manzur bo`lgan mukammal pardalar ham dastlab shu meros negizida (yoki uni nazariy jihatdan o`rganish asnosida) hosil etilib, so`ngra shu (parda) “yo`llar” asosida turli kuylar rivojlantirilgan (yoki kuylarning yangi na'munalari ijod etilgan) bo`lsa kerak.

Shunday qilib, qadimgi dunyodan meros kelayotgan mukammal parda uyushmalari keyinchalik maqom tizimlari yuzaga kelishida, shuningdek, bastakorlar-u, xalq musiqa ijodiyoti rivojida ham muhim poydevor yanglig` ahamiyat kasb etgan.

Maqomlarda mavjud yana bir musiqiy qatlamni xalq og`zaki musiqa ijodiyotining ko`hna na'munalari tashkil etadi. Hayratlanarli tomoni shundaki, maqomlarda xalq musiqasining hatto eng qadimiy na'munalariga oid “izlari” ham saqlangan. Xususan bu izlarni bizgacha yetib kelgan Navro`zi Ajam, Navro`zi Xoro, Navro`zi Sabo nomli maqom asarlarida ko`ramiz. Shundan ko`rinadiki, bu asarlarning kuy negizlarida mutaxassis olimlar tomonidan “xalq kuyining eng qadimiy na'munasi” (“birlamchi chiziq”—G. Shenker) tarzida tasnif etilgan quyi oqim kuy ohanglari yaqqol namoyon bo`ladi. Bu hol bejiz emas, albatta. Ma`lumki, ko`pgina sharq xalqlari uzoq o`tmishdan buyon Navro`z bayramini keng nishonlab, shu munosabat bilan ma`lum kuy va ashulalarni ijro etib kelganlar. O`ziga xos mavsumiy marosim musiqasi sifatida xalq an`anaviy hayotidan muqim o`rin olgan bu toifa kuylar keyinchalik maqom tizimlariga kiritilib, o`zining yuksak rivojlangan ko`rinishlarga ega bo`lganligi haqiqatga yaqin bo`lsa kerak.

Maqom manbalari qatorida “goh” (ya`ni Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh shaklidagi) kuy tizilmalari ham e`tiborga molikdir. Aksariyat olimlar bu toifa kuylar negizi qadimiy kitoblarni ma`lum ohanglarda o`qish an`anasiga dahldorligini, shu jumladan “Avesto” dagi “got” madhiyalariga borib taqalishini

faraz qiladilar. Bu o`rinda Avestodagi “Gatheha” so`zi keyinchalik daroy (forsiy) tiliga “Gah” shaklida o`tganligi va yana qator holatalar inobatga olinadi. Bizga ma`lum “goh” kuylarining tahlili esa bu na`munalarning ildizlari faraz etilayotgan davralardan-da qadimiyroq ekanligini ko`rsatadi. Xususan, Farg`ona-Toshkent maqomlaridagi Dugoh-Husayniy I kuyi negizida ikki tayanch pardali ohang tizilmasi, Segoh cholg`u kuyida, shuningdek, Shashmaqomning tasnifi Segoh, Xorazm Segoh maqomining Tani maqom qisimlarida esa uch tayanch pardali ohang tizilmalari borligi ayon bo`ladi. Etnomusiqashunos olimlarning qo`lga kiritgan so`nggi yutuqlaridan ma`lumki, bu kabi tayanch tovushli kuy na`munalari xalq musiqiy tafakkurining dastlabgi kurtaklaridir.

Albatta, maqomlarda qadimiylikka mansub qanchadan-qancha musiqiy yodgorliklarning o`rni topilmasin, biroq ularni asl holiday qayta “jonlanadi”, sadolanadi deb bo`lmaydi. Zero maqomlarda “saqlangan” musiqiy yodgorliklar, garchand ularning muhim izlari saqlanib qolgan bo`lsa-da, o`zlarining yuksak rivojlangan holatlarida namoyon bo`ladi.

Demak, maqomlarning eng qadimiy tarixi aslida tom ma`nodagi maqomlar tarixi bo`lmay, balki ko`proq ularning kelib chiqish manbalari bo`lgan ko`hna davr musiqa kuy qatlamlariga dahldordir. Xuddi ana shu turli musiqa na`munalari (demakki, turli uslubli kuy shakllari) asosida usluban badiiy yaxlit maqom tizimlarining shakllanish davrlaridan e`tiboran bevosita mumtoz maqomlar tarixi ham boshlanadi.

Dastlabgi maqom tizimlari qachon va qanday shaklda bo`lganligi xususida aniq ma`lumotlarga ega emasmiz. Bu borada Sosoniylar saroyida (shoh Xosrav Parviz davroda – 590-628yil) xizmat qilgan mashhur musiqachi – Borbad (vaf.627 y.) ijodiy merosi, xususan unga nisbat beriladigan “7 Hisravoniy”tizimi diqqatni o`ziga jalb etadi. Musiqashunos olimlar “7 Hisravoniy” tizimi keyinchalik maqomot tizimlari yuzaga kelishida asos bo`lganligi yoki har holda bu tizimning maqomlar shakllanishiga ma`lum ta`siri haqida taxminlarga boradilar. Ammo bu masalada hali bir to`xtamga erishilmaganligini ham qayd etish kerak. Mutaxassislar

salobatli maqom tizimlarining yuzaga kelishi kasbiy musiqa qatlami (ijodkorlik, ijrochilik) taraqqiyotining ma`lum tarixiy bosqichi, shuningdek, rivojlangan musiqa ilmi, falsafa va matematika fanlarining mavjudligi, qolaversa buning uchun zarur shahar madaniy muhiti kabi omillar bilan shartlanganligini alohida ta`kidlaydilar. Xususan, atoqli musiqashunos olim, san`atshunoslik fanlari doktori Ishoq Rajabovning bu boradagi malakali ko`rsatmalari e`tiborlidir: “Maqomlar insonning musiqa haqidagi tushunchalari, musiqaviy-estetik qarashlari barkamol bo`lgan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan. Maqomlar tizimining shakllanishi jahon ilmu fanining rivojlanishi bilan ham chambarchas bog`liqdir. Sharq musiqa olimlari musiqani tibbiyot, falsafa va matematika fanlari bilan bog`liq ekanligini uqtirib o`tganlar”. Professor Ravshan Yunusovning ta`kidlashicha: “Sharq maqomoti ko`hna, ancha murakkab falsafiy-estetik, musiqiy-nazariy hamda amaliy asoslarga egadir”.

Shuni aytish kerakki, sharq musulmon olamida maqom tizimlari yuzaga kelishi uchun zarur omillar IX-X asrlarga kelib jamul-jam bo`lgan edi. Zero, aynan shu davrlarda aniq fanlar rivojlandi, vatandoshimiz Abu Nasr Farobiyning (871-950) musiqashunoslikdagi buyuk xizmatlari o`laroq sharq musiqa ilmiga asos solindi, kasbiy musiqa amaliyoti yangi bosqichga yuksaldi, shuningdek diniy-falsafiy ta`limot va qarashlar yoyila boshladi. Ana shu bevosita va bilvosita omillar ta`sirio`laroq o`rta asr sharqining yirik (markaziy) shaharlarida o`n ikki maqom tizimi yuzaga kelgan edi. Mazkur tizim tasnifoti dastlab Safiuddin Urmaviy va Qutbiddin Sheroziylarning musiqa ilmiga doir asarlarida ishlab chiqilgan bo`lib, keyingi asrlarda Abdulqodir Marog`iy (XIV), Abdurahmon Jomiy, Zaynulobidin Husayniy (XV), Najmiddin Kavkabiy (XVI), Darvishali Changiy (XVI-XVII) kabi ustoz amaliyotchi va nazoratchi olimlar tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi.

O`n ikki maqom tizimi bir necha tarkibiy qisimlardan tashkil topgan bo`lib, ularning asosiylari 12 maqom, 6 ovoza va 24 sho`balardan iborat bo`lgan. Bunda qadimdan kelayotgan yetti bosqichli mukammal parda tizilmalari 12 maqom guruhiga, ko`hna xalq kuy, aytimlari (Navro`zi Ajam, Dugoh, Segoh va b.) esa

sho`balar toifasiga tasnif etilgan edi. Ushbu tizim bilan bog`liq qator masalalar, shu jumladan tarkibiy qismlarning tizim doirasidagi alohida vazifasi hamda musiqa amaliyotida bevosita o`zaro bog`lanish jihatlari hozirgacha jumboq bo`lib kelmoqda.

O`n ikki maqom tizimining bizning diyorimizda uzul-kesil qaror topishi va uning dastlabgi mumtoz ko`rinishlari Sohibqiron Amir Temur va uning vorislari – Temuriylar davriga to`g`ri keladi. Bu o`rinda eng avvalo hazrat Sohibqironning xizmatlarini alohida ta`kidlamok kerak. Yuqorida aytilganidek, maqom tizimlarini yuzaga keltirish uchun eng avvalo ularning ilmiy-nazariy asoslarini puxta ishlab chiqish zarur edi. Tabiiyki, ushbu masalaning yechimi musiqa ilmi, ya`ni musiqashunos olimlar zimmasiga yuklatilgan. Ammo bu soha olimlari nihoyatda ozchilikni tashkil etib, buning ustiga ularning eng yuqori malakali usrozlari xorijiy musulmon mamlakatlarida istiqomat qilishar edi. Hazrat Sohibqironning bevosita say`-harakatlari ila bu ilm ustozlari turli mamlakatlardan bizning diyorimizga keltirilib, ularning faoliyat ko`rsatishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berilgan edi. Alalxusus Ibn Arabshohning “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” nomli kitobida qayd qilinishicha, Samarqandga keltirilganlar qatorida mashhur musiqachi va musiqa ilmida ustoz “Abdulqodir al-Marog`iy va uning o`g`li Safiuddin, kuyovi Nasriyn, Qutb al-Mousiliy, Ardasher al-Changiy va boshqalar” bo`lgan. Muhimi bu ustoz-san`atkorlarning ilmiy-amaliy faoliyat ko`rsatishlari uchun Sohibqiron saroyida zarur shart-sharoit yaratib berilgan edi. Professor Abdurauf Fitratning “O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi” (1927) risolasida qayd etilgan quyidagi satrlar ham shunga ishora etadi: “Temurning bayrog`i bilan har tomondan keltirilgan ixtisoschi olimlarning g`ayratlari bilan bu san`at (ya`ni o`n ikki maqom-O.I.)birdan jonlandi, oyoqqa bosdi. Islom sharqining har tomonidan keltirilgan cholg`uchilar bizning bu kungi klassik musiqamizning yuksalishiga, ko`tarilishiga xizmat qildilar. O`z zamonida yerlilardan ulug` musiqiyshunoslar yetishdilar”.

Demak o`n ikki maqom tizimi ustoz kasbiy musiqachi va olimlarning o`tmish va o`z zamonlari musiqa boyliklarini yangi davr mumtoz talablari kesimida badiiy

yaxlit holga keltirish ustida uzoq yillar olib borgan ilmiy-ijodiy faoliyatlarining samarasi o'laroq yuzaga kelgan edi.

O'n ikki maqom xususida so'z yuritilganda, ularda jamlangan turli tarixiy davr musiqa yodgorliklari qanday ustuvor g'oya va ma'nolar tizimi asosida o'zaro birlashib, mutanosib holga kelganligi masalasi ham alohida qiziqish uyg'otadi. Bu mavzuni muhobasa etganda o'sha davr siyosiy-ijtimoiy-madaniy hayotida ustivor mafkura, saroy "madaniy muhiti", undagi yetakchi falsafiy qarashlardan tortib to maqomlar musiqasida muhim qaror topgan shaklu-shamoyillar, ularning ma'nolar tizimi inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir. Bu boradagi izlanishlar natijasida maqomlarning ma'nolar tizimi o'zagini "komil inson" (tasavvif) ta'limoti g'oyalari tashkil etishi ma'lum bo'lmoqda. Bunga bir qator bilvosita va bevosita dalillarni keltirish mumkin. Avvalambor shuni aytish kerakki, o'tmishda maqomlarning ilmu-amali asosan tariqat doirasida bo'lgan so'fiylar yoki har holda tasavvufga aloqador (tasavvuf ta'limoti g'oyalarini qabul etgan mutasavvuf) shaxslar shug'ullanib kelganlar. "Musiqa – rih ozig'idir", tarzidagi tasavvuflar ham asosan tasavvuf shayxul-mashoixlari tomonidan berilgan. Ayni paytda kelib chiqishi arabcha bo'lgan "maqom" atamasi va uning zamirida anglashiladigan "martaba", "joy", "manzilgoh", "mavqe'", "daraja" kabi ma'nolar ko'p jihatdan "Yassaviya" tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviy hikmatlari orqali turkiy xalqlar orasida keng yoyilgan edi. Bu atamaning hikmatlar matnida ko'plab iboralarda ("ishq maqomi", "ajab maqom", "ul maqomda oshiq qullar javlon qilur" va h.k.) kelishi shunday fikrga ma'lum asos beradi. "Maqom" atamasining musiqaga joriy etila boshlanishi ham ko'p jihatdan tasavvuf ta'limotining bu davrlarga kelib islom olamida keng yoyilganligi (bizning diyorimizda, jumladan, "Yassaviya", "Hojagon-Naqshbandiya" va "Kubroviya" tariqatlarining ijtimoiy nufuzi baland bo'lganligi), Sohibqiron Amir Temur va temuriylar hukumronligi davrida esa qariyb rasmiy mafkura mavqeiga qadar ko'tarilib, buning pirovardida saroy san'atiga, xususan mumtoz kasbiy musiqa sohasiga ko'rsatgan kuchli g'oyaviy ta'siri bilan izohlanishi mumkin.

Xulosa.

Mustaqil O'zbekistonimizda azaldan ilm-fan, ma'rifat, san'at, madaniyat va ma'naviyat barq urib gullagan zamin bo'lgan. Unda jahonning buyuk zotlari Zardusht, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad YAssaviy, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Alisher Navoiy kabilar yashab, ijod etib, kelajak avlodlar uchun faxrlanishga arzigulik ilmiy va madaniy me'ros qoldirib ketganlar.

Ana shunday ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash biz bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ham muqaddas burchidir.

Yuqorida ko'rib chiqilgan "Musiqa madaniyati darslarida faoliyatlarni foydalanish" mavzusidagi tarbiyaviy-nazariy asoslarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, badiiy vositalar yordamida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirish va kelajakda darslarni pedagogik texnologiya asosida tashkil etishga e'tibor qaratildi.

O'smir yoshdagi bolalarning g'oyaviy tushunchalarni bilish darajasini o'rganish, ularning ko'pchilik qismi vatanparvarlik tushunchalaridan to'la xabardor emasligini ko'rsatdi.

Musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining ish faoliyatini tahlil qilish va ularda vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishda musiqa faoliyatlaridan unumli foydalanishning hozirgi holati xususida manbaa to'plash imkonini yaratdi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining ob'yekti Andijon shahar XTMFMT vaTE bo'limi tasarrufidagi 5-umumta'lim maktabida amaliyot jarayonida yuqorida ko'rsatilgan mavzuning yoritilishi uchun erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarga e'tibor qaratildi.

Dastur va qo'llanmalarda badiiy vositalar asosida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirish e'tibordan chetda qolganligining guvohi bo'ldik.

Tadqiqot jarayonida musiqa madaniyati darslari o'quvchilarda

vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari amaliyotda qat'iy xisobga olinishi zarurligi sezilib qoldi.

Musiqqa madaniyati darslarida vatanparvarlik tushunchalarini va musiqqa faoliyatlarini bir-biri bilan bog'lab dars samarasini oshirish bo'yicha sinfdan tashqari to'garak uchun ixtisoslashgan maxsus dastur va rejalar yaratishlari lozim.

Vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirish bo'yicha maxsus qo'llanmalar yaratish va bu sohada ilg'or tajribalarni o'rganib amaliyotga tadbiq etish lozimdir.

Musiqiy ta'lim tizimida jamoa bo'lib kuylash, musiqqa tinglash, musiqqa savodi, musiqqa mos harakatlar bajarish, bolalar chog'u asboblarda musiqqa ritmiga jo'r bo'lish va musiqiy ijodkorlik vositasida nazariy va amaliy bilim, malakalar va ko'nikmalaridan keng foydalanish o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti 2008 y.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti 1994 y.
- 3.Estetik tarbiya asoslari. Kushaev N.A.tahriri ostida.
4. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati. Toshkent, G'afur G'ulom nomli "Adabiyot va san'at" nashriyoti 1985 y.
- 5.O'zbek musiqasi tarixi. Tuzuvchi Solomonova T.E. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti 1981 y.
- 6.Sh.Ro'ziyev "Xorshunoslik" Toshkent-1987 yil.
- 7.A.Xasanov "Maktabda ashula" Toshkent-1981 yil.
- 8.E.A.Gudkova "Uzbekskaya xorovaya literatura" Toshkent-1974 yil.
- 9.Sh.Yo'ladashev "O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. Toshkent 1985 yil
- 10.L.A.Bezbarodova "Dirijirovanie" Moskva 1985 g.
- 11.S.Begmatova, Q.Mamirov va boshq. G'ofur Gulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti Toshkent – 2001
12. Tohirjon Ortiqov "Musiqa o'qitish metodikasi" Toshkent "Muharrir" nashriyoti 2010-yil.
13. Qobiljon Usmonov "Musiqa darsligi" "Istiqlol" nashriyoti Toshkent – 2006

Mundarija:

Kirish.....	3
I. Bob .shaxsning tarbiyalash va kamolga yetishishida yoshga doir tavsiflar.....	4
I.1 umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini fan sifatida o'qitilishi.....	14
I.2.musiqa madaniyati darslarining xususiyati va strukturasi.....	16
II.bob. Musiqa faoliyatlari asosida noan'anaviy dars tashkil etish.....	23
II.1 musiqa va milliy ma'naviyat mazmuni.....	31
II.2.yosh avlodni donishmadlarimizning musiqa ilmiga oid qarashlari va maqomlarimiz orqali tarbiyalash.....	39
Xulosa.....	47
Foydalanilgan adabiyotlar.....	49